

## **PEDAGOGIK TADQIQOTLARNING AMALGA OSHIRILISHIDAGI AYRIM MUAMMOLAR**

**Z.M.Rahmatova –ADTI O‘zbek tili va adabiyoti,tillar kafedrası katta  
o‘qituvchisi**

### *Annotatsiya*

*Mazkur maqolada pedagogika yo‘nalishi bo‘yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning yo‘l qo‘yilgan kamchiliklari, ularda kuzatilayotgan bir xilliklar ko‘rsatilgan, ularni bartaraf qilish yo‘llari haqida fikr-mulohazalar berilgan. Ilmiy unvonga ega bo‘lish uchun tanlangan yo‘l o‘z mutaxassisliklaridan kelib chiqishi kerakligi ko‘rsatilgan.*

*Kalit so‘zlar:* ma‘naviy-axloqiy fazilatlar, pedagogik shakl genezisi, refleksiv va prognostik komponentlar.

## **НЕКОТОРЫЕ ПРОБЛЕМЫ В ОСУЩЕСТВЛЕНИИ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ**

**З.М.Рахматова – старший преподаватель кафедры Узбекского языка и  
литературы, языков**

### **Аннотация**

В данной статье анализированы недостатки, допущенные в научных исследованиях по направлению педагогики, их однотипность и высказаны мнения по их устранению. Здесь говорится о том, чтобы иметь учёную степень, надо исходить из выбранной специальности.

Ключевые слова: духовно-нравственные качества, генезис педагогической формы, рефлексивные и прогностические компоненты.

## **CHALLENGES IN THE IMPLEMENTATION OF PEDAGOGICAL RESEARCH**

**Rakhmatova Z.M. - Senior teacher of the Department of Uzbek language and literature, Languages.**

**Annotation**

This article shows the shortcomings of scientific research in the field of pedagogy, the similarities observed in them, and comments on ways to overcome them. It has been shown that the path chosen to obtain a scientific degree must come from one's own specialties.

**Key words:** spiritual and moral qualities, genesis of the pedagogical form, reflective and prognostic components.

O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta’limni modernizatsiya qilish, ilg‘or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi o‘rganilib, ilmiy daraja olish uchun olib borilayotgan tadqiqotlarga yangicha yondashuv boshlandi.

Ilmiy –pedagogik fikrlashning zamonaviy uslubi falsafaga asoslanib, mavjud ta’lim amaliyotini o‘zgartirish hamda tushunish uchun uning dunyoqarashini, ijtimoiy-aksiologik va mantiqiy-gnosologik potensialni aniqlashtiradi. Pedagogik voqelik va kasbiy dunyoqarashning ilmiy ko‘rinishini shakllantirishga sabab bo‘lib, fikrlash uslubi bir tomondan uslubni shakllantiruvchi omillar sifatida, ikkinchi tomondan esa uning o‘zi ham ularga vositachilik qiladi.

Buning oldini olish uchun pedagogik fanlarni o‘qitish jarayonining o‘zini metodologik o‘zgartirish zarur. Birinchidan, bu o‘qitish, konseptual bo‘lishi kerak, ya’ni boshlang‘ich ta’limda beriladigan nazariya o‘rganilayotgan obyekt misolida har qaysi alohida sinf o‘quv materialini tuzilishiga mo‘ljallangan “baza chizmasi” ( P.Ya, Galperin bo‘yicha) singari doimiy qo‘llanishi kerak. Ikkinchidan, o‘qitish operativ ta’lim standartlari talablariga javob berishi kerak,

unda pedagogik tamoyil mazmuni talabalar oldida kasbiy faoliyat strategiyalari yig'indisi sifatida paydo bo'lishi kerak. Uchinchidan, o'qitish muammoli bo'lishi kerak, bu muammoli vaziyatlarni yaratish, ularni tahlil qilish shartlarini o'z ichiga oladi (eng avvalo, kundalik va ilmiy tafakkurlarning qarama qarshiligi hisobiga). Vanihoyat, refleksivlik talabi pedagogikani o'qitish talabidan kognitiv va amaliy, idrok qilish ta'sirini mantiqiy vositalarini to'g'ri tushunishni talab qiladi.

Fikrning metodologik sohasi - pedagogik tadqiqotlar samaradorligining aniq mezonidir.

Yangilikni aniqlash ko'pincha atrofni tuman qoplaganday ko'rinadi. Yangi ilmiy holatni ochish bilan birga izlanuvchi qandaydir va'da va ishoralar bilan ish olib boradigan nazariy xulosalar ishlab chiqaradi. Tadqiqot natijalarining yangiligini yoritishda ko'pincha fan va amaliyot uchun mavzuning muhimligi gapiriladi, u esa hanuzgacha o'rganilmaganligicha qolmoqda. Ammo bu holatlar tadqiqot natijalarini tavsiflamaydi, aksincha mavzuni sharhlashga taalluqli bo'ladi.

Pedagogika bo'yicha ko'plab dissertatsiyalarda nazariy ahamiyat yoritilmaydi, balki yangilik bilan identifikatsiya qilinadi, tantanali ravishda e'lon qilinadi. Bu ahamiyatni odatiy ta'riflash –muallif tomonidan hal qilingan vazifalarni sanab o'tish hisoblanadi. Olingan natijalar asosida qanday o'zgarishlar bo'lishi mumkin, fanni rivojlantirish uchun nazariy xulosalar nimalardan iborat ekanligini faqat o'ylash kerak bo'ladi.

Ilmiy natijalarning amaliy ahamiyati odatda turli darajada umumlashtirish va to'ldirish bilan yoritiladi, ba'zan umumiy tomondan, annotatsiya turida chizmalı va noaniq bo'ladi.

Pedagogika bo'yicha dissertatsiyalarning ko'plari an'anaviy namoyish oqimida, odatiy shtamplar va stereotiplar ko'rinishida bo'ladi. Ularning mualliflari ko'pincha tor doiradagi mutaxassislar uchun qiziqarli bo'lgan ikkinchi darajali muammolarni hal qiladi. Ular orasida rivojlanish bosqichlari bo'yicha regional xarakterga ega muammolarni yoritgan tadqiqotlar ustunlik qiladi. Sezilarli miqdordagi ishlarning mavzulari birlamchi ishlab chiqilgan sanaladi.

Ma'lumki, har qaysi fan rivojlanishi uning nazariya va metodologiya holatini aniqlaydi. Mana nima uchun fanning nazariy metodologik asosini ishlab chiqish amaliyotdan ajratilgan holda qaralmasligi kerak. Aksincha, "Katta nazariya muammolari, to'g'ri va aniq tushuncha, shu bilan birga amaliy muammolar katta ahamiyaga ega. Haqiqatda, yirik nazariy muammolar –bu aniq hayotiy muammolar bilan munosabatda ularni ko'rish hisoblanadi" [2, 3-b]. Bunday yondashuv mavjud aniq materialni baholash va to'g'ri izohlash, fenomenologik tavsiflash darajasidan haqiqiy ilmiy nazariya qurishga o'tish dialektikasini namoyish etish imkonini beradi.

Ikkinchi bosqichning asosiy nazariy mahsuloti bo'lgan gipoteza taxmin va farazlar singari namoyon bo'ladi, bunda haqiqat isbotlanmagan nazariya singari tekshirish va tasdiqlashga ehtiyoj sezadi. Gipotetik bosqich empirik tadqiqot darajasidan nazariyaga yo'l ochadi. Bu bosqichda o'rganilayotgan ob'ektning haqiqiy tushunchalari va uning mohiyatini tushunish zarurati o'rtasidagi qarama qarshilikka ruxsat beriladi.

Uchinchi, nazariy bosqichni belgilashda tadqiqot ob'ekti va umumiy ehtiyoj, tizimli tuzilish va u haqdagi algoritmik tasavvur to'g'risidagi funktsional hamda gipotetik tasavvur o'rtasidagi qarama qarshilik bartaraf etiladi.

Nazariya -bilimning mantiqiy tashkilotidirki, aniq dalillarga bo'ysunmaydi, ammo unga ega bo'lgan butun yaxlitlikka tegishli hamma dalillarni tekshirish mumkin bo'lganda bitta yaxlit tamoyildan yoki asosiy tamoyildan kelib chiqadi. Fan qonunlarni asosiy dalillar orqali ochadi. Umumiy alohida orqali ochilishi boshqacha, alohida orqali esa bundan mustasno. Dalil borliq shakli va qonunning bevosita namoyon bo'lishi hisoblanadi.

Pedagogik dalillarning umumiylik darajasi bo'yicha individual va ommaviy, yagona va umumiy (dalil-rezyume) dalillarga bo'linadi. Qayd qilinganlarning takrorlanishiga bog'liqlikda umumiy dalillar dinamikasi statik bo'ladi. Yakunida umumiy xulosa, o'rtacha natija ommaviy yig'indiga kiruvchi, har qaysi alohida holatga mos kelmaydigan moyillik izohlanadi.

Qonunga nisbatan pedagogik faktlar odatiy mavjud holatlar (ularda qonun to'liq ifodalanadi, aniqlik va to'liqlikda –odatiy faktlar kuzatiladi), boshqalari alohida, qisman qonuniy ifodalanadi (noqonuniy faktlar), ayrimlari esa umuman undan og'gan (salbiy faktlar) hisoblanadi. Salbiy faktlar mazkur qonun doirasida aniqlanadi, ular pedagogik hodisalarni chuqur ilmiy tushunishga yangicha yondashuv, yangi nazariya ishlab chiqishga zarba bo'ladi.

Ma'lum ma'noda pedagogik tadqiqot aqliy tajribaga asoslanadi. Bunda intilish har qanday hodisaning qiyinchiligida kuzatiladi, urinish inson tizimi ichiga kirib boradi, tashqi mexanizm inson ongida qanday aks etishini tushunish va bilish kerak bo'ladi, uning ichki subyektiv holati, keyin qanday tashqi tartibdagi ta'sirlar ichki o'zgarishlarga olib kelishini o'ylab topishi kerak.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilar bilan tavsiflanadi:

- yangi, avval o'rganilmagan tushunchalar mazmunini yoritish;
- ma'lum ilmiy tushunchalarning mavjud yangi sabablarini aniqlash;
- ma'lum ilmiy kontsepsiya doirasida yangi ilmiy g'oyalar bilan boyitish.

Tadqiqotning nazariy ahamiyati quyidagilarni aniqlaydi:

- nazariya, tahlil, sintez, umumlashtirish va boshqalarni shakllantirishda tadqiqotning hamma ilmiy usullarining qo'llanilishi;
- g'oya, argumentlar, dalillar, tasdiqlovchi yoki inkor etuvchi moyilliklar, ilmiy dalillar, xulasa, bosqich, daraja, omillar va sharoit bayon qilinishi;
- muhim amaliy vazifalarni hal qilish uchun nazariy fikrga ega kontsepsiya yangilanishi;
- ta'lim sohasida murakkab jarayonlar rivojlanishini oldindan aniqlash va mohiyatini tushuntirishga imkon beruvchi nazariya yaratilishi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1 . Rubinshteyn, S.L. Бытие и сознание / S.L. Rubinshteyn. M., 1957. - S. 3.

2. Ushinskiy, K.D. Sobr. soch. / K.D. Ushinskiy. - T. 2. - S. 18-19.

3. Минаварова Г.М. Аспекты обучения профессиональному языку студентов  
медвузов Scientife Bullettin of NamSU - Научный вестник - NamDU ilmiy  
axborotnomasi - 2022\_2-сон